

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI**

**O'ZBEKISTON ILMIY-SINOV VA SIFAT NAZORATI MARKAZI"
DAVLAT MUASSASASI ILMIY KENGASHI QARORI**

2025-yil 14-fevral

1-son

Toshkent shahri

**“O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” Davlat muassasasida
oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkil etish to'g'risida**

Kun tartibidagi masala yuzasidan direktor maslahatchisi N.Mamadaliyevaning axboroti tinglandi.

Agentlik tizimidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini (tayanch doktorantura va doktorantura) tashkil etish bo'yicha masala o'rganib chiqildi va quyidagilar ma'lum bo'ldi:

Ma'lumki, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish — mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va texnik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega sohalaridan biri. Ushbu sohada kadrlarning yuqori malakali bo'lishi, zamonaviy talablarga mos keladigan, ilmiy asoslangan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Shu munosabat bilan, oliy ta'limdan keyingi ta'lim (doktorantura) tizimini tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bu tizimni tashkil etishdan maqsad doktorantura yo'nalishida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy xodimlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida” Nizomga binoan oliy ta'limdan keyingi ta'lim — doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim turi bo'lib, ilmiy tashkilotida tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik shakllaridagi oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshirish tizimi oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutini tashkil etishi mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti ilmiy tashkilot huzurida fan va texnikaning muhim tarmoqlarida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlarida fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish, davlat ilmiy dasturlarini amalga oshirish maqsadida ochiladi.

“O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” faoliyat mazmunidan kelib chiqib, quyidagi ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik shakllaridagi oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini joriy etishlari mumkin:

05.03.01 – Asboblarni o'lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo'yicha)

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- tayanch doktorantura;
- doktorantura;
- mustaqil izlanuvchilik;

Stajyor-tadqiqotchilik instituti oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga tayyrgarlik bosqichi hisoblanadi.

Ilmiy kengash a'zolari kun tartibidagi masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar va "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi"da oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti – tayanch doktorantura va doktorantura tashkil etish to'g'risidagi taklifni bir ovozdan ma'qulladilar.

Ovoz berish natijalari: 13 kishi rozi, qarshilar va betaraflar yo'q.

Taklif bir ovozdan ma'qullandi

Ilmiy kengash qaror qiladi:

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan Agentlik direktorining maslahatchisi N.Mamadaliyevaning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin va taklif ma'qullansin.

2. "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" Davlat muassasasida quyidagi ixtisoslik bo'yicha tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik shakllaridagi oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi tashkil etilsin:

05.03.01 – Asboblar. O'lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo'yicha)

3. UzTEST direktori (J.Kattaxodjaev):

- 1 hafta muddatda institutda oliy ta'limdan keyingi ta'limni tashkil etish yuzasidan Innovatsion rivojlanish agentligiga murojaat qilsin va tashkiliy ishlarni amalga oshirsin;

- 2025-yil 1-iyungacha bo'lgan muddatda Yagona elektron tizim orqali elektron shaklda Innovatsion rivojlanish agentligiga ilmiy darajali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar, amaldagi oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarining samaradorligi, ta'lim olayotgan stajyor-tadqiqotchilar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar kontingenti, ilmiy rahbarlar va ilmiy konsultantlarning samarali ishlari, shuningdek, bitta ilmiy rahbar va bitta ilmiy konsultantga birlashtiriladigan izlanuvchilar va stajyor tadqiqotchilar sonidan kelib chiqib, keyingi yildan boshlab attestatsiyadan o'tgan yo'nalishlar bo'yicha stajyor-tadqiqotchilikka, tayanch doktoranturaga, doktoranturaga qabul kvotasi bo'yicha asoslangan takliflar bilan murojaat qilsin.

4. Belgilab qo'yilsinki, doktoranturaning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, hisobotini yuritishning boshqa jarayonlari yuqorida qayd etilgan Nizomga binoan tashkil etiladi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Agentlik direktorining maslahatchisi N.S.Mamadaliyeva zimmasiga yuklatilsin.

Ilmiy kengash raisi



J.Kattaxodjaev

Ilmiy kotib



D.Kuvatov